

**KONSTITUTSIYA –DAVLAT VA MILLAT TARAQQIYOTINING
BUGUNI VA KELAJAGI POYDEVORI**

K.Mamatraimov

Termiz muhandislik-texnologiya instituti tarix fani o'qituvchisi.

P.Shodiyev

*Termiz muhandislik-texnologiya instituti “Energetika va konchilik ishi”
fakulteti 1-kurs talabasi.*

***Annotatsiya.** Ushbu maqolada yangi tahrirdagi Konstitutsiyaning qabul qilinishi O'zbekiston uchun, uning ertangi taraqqiyoti yo'lida katta qadam ekanligi, uning mamlakat siyosiy tizimini modernizatsiya qilish va rivojlantirish, demokratik boshqaruvni qonun asosida mustahkamlash, inson huquqlarini himoya qilish, iqtisodiy o'sish va taraqqiyotga ko'maklashishga qaratilganligi yuzasidan fikr mulohazalar berilgan.*

***Kalit so'zlar:** O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, umumxalq referendumi, demokratiya, konstitutsiyaviy normalar, demokratik boshqaruv, inson huquqlari, sud hokimiyati, xalqaro hamjamiyat.*

Kirish

O'zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi konstitutsiyasi 2023 yilning 30 aprel kuni o'tkazilgan O'zbekiston Respublikasi referendumida umumxalq ovoz berish yo'li orqali qabul qilindi hamda 2023 yilning 1 may kunidan yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi kuchga kirdi. Konstitutsiya fuqarolarning huquq va majburiyatlari majmuasidir. Uni jamiyatning har bir a'zosi teran anglagan holda amal qilib yashashi, jamiyatda insonlarning kundalik turmushi, oilaviy farovonligi va kafolatlangan barqaror hayotning kalitidir. Davlatimizning taraqqiyotini uning barqaror rivojlanishini ta'minlayotgan asosiy qonunimizda fuqarolarning shaxsiy huquq va erkinliklari, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy huquqlari,

inson huquq va erkinliklari kafolati to'g'risidagi normalar mustahkamlanishi jamiyatda inson manfaatlarini har narsadan ustun ekanligini kafolatlab kelmoqda.

Muhokama va natijalar

Konstitutsiya davlatni davlat sifatida, millatni millat sifatida dunyoga tanitadigan asosiy qomusnomadir. Yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi konstitutsiyasida "inson qadri"ning yuksalishi, unga bo'lgan e'tiborning kuchayishi, davlat va jamiyat taraqqiyotini "inson-jamiyat-davlat" degan tizimga asoslangan holda yangi va zamonaviy tarzda boshqarish imkoniyatini yaratib berdi. Qonun ustuvor bo'lgan demokratik jamiyatda qabul qilinayotgan qonunlar va normalarning adolatli bo'lishi va o'zida xalq manfaatlarini ifoda etishi ertangi barqaror rivojlanishning huquqiy kafolati hisoblanadi. Qachonki mana shunday qonunlarga og'ishmay itoat etilsa va amal qilinsagina jamiyatda demokratiya qaror topadi va mustahkam bo'ladi.

Bularning barchasi chuqur anglangan holda yangi Konstitutsiya Prezident Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan maxsus tayinlangan komissiya tomonidan ishlab chiqildi. Komissiya tarkibiga konstitutsiyaviy huquq sohasi mutaxassislari, fuqarolik jamiyati tashkilotlari vakillari, parlament deputatlari kiritildi. Konstitutsiyaviy komissiya yangilangan qonunni yaratishda o'z faoliyatini uch bosqichda amalga oshirdi. Birinchi bosqichda, Konstitutsiyani o'zgartirish bo'yicha takliflar qabul qilindi, jamlandi va tahlil qilindi. Qisqa muddatda fuqarolardan 60 mingdan ziyod taklif va g'oyalar kelib tushdi. Ikkinchi bosqichda, parlament tomonidan ishlab chiqilgan, takomillashtirilayotgan Konstitutsiya loyihasi umumxalq muhokamasida ko'rib chiqildi. Uchinchi bosqichda, umumiy referendumga qo'yish orqali qabul qilindi.

Mamlakatimiz taraqqiyoti kafolati bo'lgan Konstitutsiya xalqimiz farovonligi rivojiga xizmat qilishi, eng avvalo "Inson qadri uchun" g'oyasining ustuvor yo'nalish sifatida belgilashini o'zida ifoda etdi shu maqsadda insonning qadr-qimmatini, sha'ni va g'ururi ustuvor maqsad qilib olingan, jamiyat taraqqiyoti izchil va puxta o'ylangan, bir necha bosqich davomida ishlab chiqilgan bosh qomusimizning yangi tahrirdagi varianti ishlab chiqildi. Moddalar soni amaldagi

128 tadan 155 taga, normalar soni esa 275 tadan 434 taga ko'paydi. Shuningdek, 128 ta moddadan 91 tasiga konseptual o'zgarish kiritildi. Bir so'z bilan aytganda Konstitutsiya matni 65 foizga yangilandi.

Mustaqil, suveren va ijtimoiy davlatga aylanayotgan Respublikamiz Konstitutsiyasi rivojlangan, demokratik davlatlarning tarixiy tajribasi va jahon konstitutsiyaviy amaliyotiga tayangan holda yaratilgan. Mazkur bosh qomusimiz, Birlashgan millatlar tashkiloti xujjatlariga, xalqaro huquqning umume'tirof etgan qoidalariga to'la asoslangan konstitutsiyadir. Konstitutsiyamizning har bir bob va moddasida bir qator huquqiy normalar mustahkamlangan, bu normalarda bizning kundalik yurish-turishimizdan tortib, siyosiy-iqtisodiy va ijtimoiy huquqlarimiz, erkinliklarimiz, burchlarimiz, davlat boshqaruvi va nazorat idoralari, moliya va kredit, mudofaa va xavfsizlik masalalari o'z aksini topgan. Bugun demokratik davlat, adolatli jamiyat qurishda, barcha salohiyatimizni ishga solishimizda, iqtisodiyotimizni rivojlantirishimizda va ma'naviyatimizni yuksaltirishda, Vatanimizni obod qilishda, tinch va farovon hayot sharoitining yaratilishida, xalqimizning bunyodkorlik va yaratuvchanlik faoliyatining namoyon bo'lishida asosiy qonunimiz, bosh qomusimiz bo'lgan Konstitutsiyamizning o'rni beqiyosdir. Umuman olganda, yangi Konstitutsiya O'zbekiston uchun katta qadamdir. U mamlakat siyosiy tizimini modernizatsiya qilish, demokratik boshqaruvni mustahkamlash, inson huquqlarini himoya qilish, iqtisodiy o'sish va taraqqiyotga ko'maklashishga qaratilgan. Yangi Konstitutsiyada taklif etilgan asosiy o'zgarishlardan yana biri hokimiyatlar bo'linishining kuchaytirilishidir. Konstitutsiyada hokimiyatning ijro etuvchi, qonun chiqaruvchi va sud tarmoqlari o'rtasidagi vakolatlari aniq chegaralangan holda muvozanat tamoyili asosida belgilab qo'yilgan. Jumladan Yangilangan Konstitutsiyada Prezidentning vakolatlari cheklanadi, parlament hukumat faoliyatini nazorat qilish vakolatiga ega bo'ladi.

Inson huquqlarining keng doirasi, ya'ni so'z erkinligi, yig'ilishlar va uyushmalar tashkil etish erkinligi kafolatlangan. Unda irqi, jinsi, dini va boshqa omillarga ko'ra kamsitishni va inson huquqlari buzilishi taqiqlangan. Bundan

tashqari, Konstitutsiya mulk huquqini ta'minlash, byurokratiyani qisqartirish va biznes uchun yanada qulay muhit yaratish orqali iqtisodiy o'sish va rivojlanishga ko'maklashishga qaratilgan islohotlarni kafolatlaydi. Shuningdek, mazkur Konstitutsiya atrof-muhitni muhofaza qilish va barqaror rivojlanish muhimligini tan oladi, demokratik boshqaruvni mustahkamlash va inson huquqlarini himoya qilishga qaratilgan bir qancha muhim o'zgarishlarni o'z ichiga oladi.

Masalan, Konstitutsiyada mustaqil sud hokimiyati o'rnatilib, adolatli sud muhokamasi huquqi kafolatlanadi. Xususan birgina "Advokatura" sohasining alohida bob sifatida asosiy qonunga kiritilishi uning ahamiyatlilik darajasini yanada oshiradi. Shuningdek, bu muhim hujjat so'z, matbuot va din erkinligini kafolatlaydi. Bundan tashqari, yangi Konstitutsiya parlamentning mamlakat boshqaruvidagi rolini kuchaytirib, prezidentdan muhim tayinlovlar va qarorlar uchun parlamentdan ruxsat olishini talab qiladi. Yangi Konstitutsiyada iqtisodiy o'sish va rivojlanishni rag'batlantirish qoidalari ham mavjud. Masalan, u xususiy mulk huquqlarini kafolatlaydi va xorijiy sarmoya uchun asos yaratadi. Shuningdek, u mamlakat infratuzilmasini yaxshilash, innovatsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirishga qaratilgan qoidalarni ham o'z ichiga oladi.

O'zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi Konstitutsiyasi ijtimoiy adolat, erkinlik va tenglik tushunchalari bilan chambarchas bog'liq ekanligi, inson va davlatning huquqiy holatini belgilashda inson huquqlari ustuvorligi, davlat bilan fuqaroning o'zaro siyosiy-huquqiy mas'ulligi prinsiplariga asoslanuvchi tamoyillar yangi konsepsiyaga tayangan bo'lib, unda ilk bor inson huquqlari kategoriyasi konstitutsiyaviy darajada mustahkamlab qo'yilgan. Davlatimiz tarixida muhim o'zgarishlardan biri hisoblangan yangilangan Konstitutsiya mamlakatimizning uzoq muddatli taraqqiyot strategiyalari, umuman, yurtimiz va xalqimizning ertangi farovon hayoti uchun mustahkam huquqiy asos hamda ishonchli kafolat yaratadi.

Ma'lumki, Konstitutsiya o'zida insonning xalqaro umume'tirof etilgan asosiy huquq va majburiyatlarini jamlagan va oliy yuridik maqomga ega hujjatdir. Shunday ekan, O'zbekistonda amalga oshirilayotgan konstitutsiyaviy islohotlar barchamiz uchun o'ta muhim va ahamiyatlidir. "Inson qadri uchun" g'oyasini hamda davlatimiz

rahbari tomonidan olib borilayotgan hozirgi islohotlarning bosh tamoyili bo'lgan "Inson – jamiyat – davlat" degan yondashuvni Konstitutsiyaning mazmuniga chuqur singdirib, amaliy hayotimizda bosh qadriyatga aylantirishimiz zarur bo'lib hisoblanadi. Ya'ni, insonning qadr-qimmat, sha'ni va g'ururi bundan buyon barcha sohalarida birinchi o'rinda turishi kerakligi alohida e'tirof etilmoqda.

Xulosa

Yaqin yillarga qadar O'zbekistonda inson huquqlari holati xalqaro hamjamiyat va tashkilotlar tomonidan qattiq tanqidga olinar, bu nafaqat yurtimiz nufuziga, balki mamlakatimiz iqtisodiy rivojiga ham salbiy ta'sir ko'rsatar edi. So'nggi yillarda mamlakatimizda yashayotgan har bir insonning huquq va erkinliklarini kafolatlash va to'liq himoya qilish masalasi eng ustuvor vazifa sifatida belgilanib, "Inson qadri ustuvor bo'lgan jamiyat va xalqparvar davlat" g'oyasi asosida Yangi O'zbekistonni barpo etishning zarur siyosiy-huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy va ilmiy-ma'rifiy asoslari yaratildi. Muhtaram yurtboshimiz Sh. Mirziyoyev "amalga oshirilayotgan barcha islohotlarimiz markazida inson qadrini ulug'lashga qaratilgan ezgu g'oya mujassam. Darhaqiqat, inson munosib sharoitda ta'lim-tarbiya olib, farovon hayot kechirgan taqdirdagina, jamiyat va davlat uyg'unlikda barqaror rivojlanadi. Shuning uchun ham, bugungi kunda jahon miqyosida inson huquq va erkinliklariga, ushbu tushunchalar bilan bog'liq reyting va standartlarga birinchi darajali ahamiyat berilmoqda.

Inson – davlat va jamiyat uchun maqsadga erishish vositasi emas, aksincha, ana shu maqsadning bosh mazmuni va manbai hamda eng oliy qadriyat bo'lishi lozim" deya ta'kidlagan fikrlarida jamiyat taraqqiyoti va yurt farovonligi ta'minlash, ertangi kuniga bo'lgan ishonchni uyg'otish, jamiyat kelajagini asosiy qonun bilan himoya qilish g'oyasi bugun amaliy harakatga aylanmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. Toshkent. "O'zbekiston". 30.04.2023

2.Mirziyoyev.Sh.M. “Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi”.Toshkent. “O‘zbekiston”.2022

3.Mamatraimov, Komil. "OCHIQLIK, OSHKORALIK VA KO'P TOMONLAMA HAMKORLIK O'ZBEKISTON TASHQI SIYOSATINING USTUVOR YO'NALISHI." *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences* 3.12 (2023): 391-396.

4.Mamatraimov, K. M. "O'ZBEKISTON VA XITOIY XALQ RESPUBLIKASI: TARAQQIYOT YO'LIDAGI HAMKORLIK." *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences* 3.4 (2023): 87-90.

5.угли Маматраимов, Комил Маматмурод. "ПРАКТИЧЕСКОЕ ЗНАЧЕНИЕ РАЗВИТИЯ ЗНАНИЙ «ИСТОРИИ ПОЛИТИКО-ПРАВОВЫХ ПРОЦЕССОВ НЕЗАВИСИМОГО УЗБЕКИСТАНА» У СТУДЕНТОВ НЕСПЕЦИАЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ ВЫСШЕГО ОБРАЗОВАНИЯ." *GOLDEN BRAIN* 2.11 (2024): 64-70.

6.Mamatraimov, K. M. (2024). SUSTAINABLE DEVELOPMENT STRATEGIES IN POLITICAL AND LEGAL PROCESSES OF UZBEKISTAN ARE SERVING THE DEVELOPMENT OF THE COUNTRY. *Innovative Technologica:Methodical Research Journal*.

7.100 savolga 100 javob. “Yangi O‘zbekiston Konstitutsiyasi”yagona milliy portali.

8. Norma.uz

9. Review.uz

10. oyina.uz